

## Bag'rikenglik - davlat rivojlanishi va barqarorlikni ta'minlashning muhim omili



Bugun biz koronavirus pandemiyasining inqirozli oqibatlari millatlararo ziddiyat va konfessiyalararo munosabatlarning keskinlashuviga olib kelayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz.

AQShning Pyu tadqiqot markazi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining aksariyati yashaydigan 50 dan ortiq mamlakatlarda insonlar bir-birlariga murosasiz munosabatda bo'lishi yoki alohida etnik guruhlarining huquq va erkinliklariga nisbatan jiddiy cheklovlar o'rnatilishiga duch kelmoqda. Ayniqsa, insonlar muayyan davlatda harbiy harakatlarning oqibatlaridan aziyat chekmoqda. Etnik kelib chiqishi, biror dinga e'tiqod qilish yoki qilmasligi sababli ta'qiblar, jazolash, kamsitish juda ko'p insonlar uchun kunlik tartibiy holatga aylanmoqda. Dunyoning ko'plab mamlakatlari qonunchiligida va xalqaro-huquqiy hujjatlarda inson huquqlarini himoya qilish tamoyilining mustahkamlanganligiga qaramay, ushbu huquqiy me'yor dunyoning ayrim hududlarida cheklashlar, buzilishlar va amal qilmaslikka olib kelmoqda. Shu bois jamiyatlarda bag'rikenglik (tolerantlik)ni ta'minlash jahon hamjamiyatining jamoaviy mas'uliyati bo'lib qolmoqda.

Har yili 16 noyabr kuni jahonda xalqaro bag'rikenglik (tolerantlik) kuni sifatida nishonlanadi. Shu kuni 1995 yilda Birlashgan Millatlar tashkiloti (BMT)ning maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashgan muassasasi - YuNESKOga a'zo davlatlar «Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi»ni qabul qilishdi. Ushbu hujjatga ko'ra, bag'rikenglik siyosiy-huquqiy ehtiyoj bo'lib, u inson huquqlari, plyuralizm, demokratiya va qonun ustuvorligi ta'minlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, har bir inson o'z e'tiqodiga rioya qilishi va boshqalarning ham bunday huquqini tan olgan holda, o'z qarashlarini o'zgalarga majburiy sindirishga yo'l qo'ymasligi belgilangan.

O'z navbatida, BMT xalqaro hamjamiyatni, zarurat bo'lgan taqdirda, jamiyatlardagi barcha etnik guruh va shaxslarga teng imkoniyatlarni yaratish va ta'minlash maqsadida milliy qonunchilikni ishlab chiqish va takomillashtirishga chaqirdi. 1996 yilda Bosh Assambleya BMTga a'zo davlatlarga 16 noyabrni har yili

nishonlashni va keng jamoatchilikka qaratilgan tadbirlarni o'tkazishni taklif qildi.

Zo'ravonlikka qarshi kurashish va bag'rikenglik g'oyalarini keng targ'ib qilish maqsadida YuNESKO hindistonlik rassom, yozuvchi va diplomat hamda mazkur tashkilotning yaxshi niyat elchisi bo'lgan Madanjit Singx (1924-2013) nomi bilan atalgan mukofotni joriy etdi. Mukofot 1995 yilda ta'sis etilgan bo'lib, u har ikki yilda bir marotaba zo'ravonlikka qarshi kurash va bag'rikenglikni targ'ib qilishda muhim hissa qo'shgan shaxslarga va samarali faoliyat olib borayotgan muassasalar hamda tashkilotlarga beriladi.

2016 yilda ushbu mukofot turli diniy konfessiyalar o'rtasidagi muloqotni rag'batlantirishga qaratilgan ilmiy va o'quv dasturlarini ishlab chiqqan psixologiya va tolerantlik pedagogikasi sohasida faoliyat yurituvchi Rossiya federal ilmiy-uslubiy markaziga topshirildi. 2018 yilda mukofot bag'rikenglik g'oyasi targ'iboti uchun kanadalik rejissyor Manon Barbeau va NNT «Birga yashash tashabbusi» (Keniya)ga berilgan bo'lsa, 2020 yilda Kongo demokratik respublikasining Mojarolarni bartaraf qilish markazi jangarilar safiga yollangan bola-asarlarni qutqarish uchun va ularni o'z jamoalariga reintegratsiya yo'nalishida olib borgan ishlari uchun mukofotga loyiq topildi.

O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi ham mamlakatda yashayotgan turli madaniyat va millat vakillari o'rtasida o'zaro hamjihatlikni chuqurlashtirish orqali jamiyatda bag'rikenglikni ta'minlash va mustahkamlashga e'tibor berib kelmoqda. Bu tamoyillar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosini tashkil etib, irqi, millati, tili, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, inson huquqlarini himoya qilish va ta'minlashga qaratilgan milliy normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan.

Konstitutsiyaviy kafolatlar mamlakatimizning barcha fuqarolariga o'z istak-hohishlarini, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida ishtirok etish uchun teng sharoit va imkoniyatlar yaratib beradi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining millatlararo va dinlararo totuvlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro-huquqiy hujjatlarning asosiy printsiplariga to'la mos keladi.

Ushbu sohadagi O'zbekiston siyosatining ustuvor tamoyillari inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, xavfsizlikni ta'minlash, dinlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash hisoblanadi. Mazkur jihatlar mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021 yillarda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida o'z aksini topgan.

Inson huquqlari – inson huquqlarining barcha kategoriyalari – taklif etilayotgan islohotlarning zamini bo'lib xizmat etuvchi keng ko'lamli strategik hujjat, ya'ni Prezident tomonidan ilgari surilayotgan 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida belgilangan barcha beshta ustuvor yo'nalishda muhim o'rin egallaydi.

Strategiyaga muvofiq, mamlakatda ijtimoiy hamjihatlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash O'zbekistonning zamonaviy davlat sifatida rivojlanishining ajralmas qismidir. Xususan, so'nggi yillarda, davlat qurilishi, millatlararo totuvlik, vijdon va e'tiqod erkinligini ta'minlash sohasida 50 dan ortiq qonun hujjatlari va 40 ga yaqin qarorlar qabul qilindi. Ushbu huquqiy hujjatlarning aksariyati diniy e'tiqodi yoki millatidan qat'iy nazar, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kengaytirish, jumladan, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda faol ishtirok etishga qaratilgandir.

2017 yil 19 maydagi Prezidentimizning tegishli Farmoni bilan O'zbekiston amaliyotida birinchi marta Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi – millatlararo munosabatlar sohasida yagona siyosatni amalga oshirishni muvofiqlashtiruvchi davlat boshqaruvi organi tashkil etildi. Shuningdek, 2019 yilda jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, do'stlik muhitini shakllantirishga yo'naltirilgan millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati kontseptsiyasi tasdiqlandi. Shuningdek, davlat idoralarining diniy tashkilotlar bilan o'zaro aloqalarini muvofiqlashtiruvchi Din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyati ham takomillashtirildi.

Hozirgi kunda yuqorida qayd etilgan davlat muassasalari mamlakatda bag'rikenglik, millatlararo va dinlararo totuvlikni ta'minlash sohasida o'zlarining katta hissalarini qo'shib kelmoqda.

Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashda millatlararo omil katta ahamiyatga ega. O'zbekiston hududida tarixan turli madaniyatlar, e'tiqod, sivilizatsiyalar, xalqlar va etnik guruh vakillari do'stlik va yaxshi qo'shnichilikda yashaganlar. O'zbekiston tarixining eng og'ir davrlarida ham turli diniy konfessiya vakillari o'rtasida diniy ziddiyatlar bo'lmagan. Turli xalqlarning tinch-totuv yashashiga asosan, qadimdan mintaqa aholisiga xos bo'lgan, millati va dinidan qat'iy nazar, o'zaro hurmat, xushmuomalalik, mehmondo'stlik va samimiylik kabi hislatlar imkon bergan. Avloddan-avlodga o'tib kelayotgan bu fazilatlar va an'analarning uzluksizligi jamiyatimizda bag'rikenglikni ta'minlashda muhimdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilmoqda, 138 milliy madaniyat markazlari va 34 do'stlik jamiyatlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning faoliyati O'zbekistonda yashayotgan barcha xalqlar va etnik diasporalarning tarixini hurmat qilish va madaniy-ma'naviy qadriyatlarini, milliy an'ana va urf-odatlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash tamoyillariga asoslanadi.

Shu bilan birga, ayni paytda O'zbekistonda 2300 dan ortiq diniy tashkilot va 16 ta diniy konfessiya faoliyat yuritib kelmoqda. Jumladan, ular qatoriga, musulmonlar, xristianlar, katoliklar, yahudiylar, budda ibodatxonasi, baxoiylik va krishnachilar jamiyatlarini kiritishimiz mumkin.

Mamlakatning har qanday hududida turli etnik guruhlar va din vakillari tinch va do'stona yashaydigan mahallalar mavjud. Ular birgalikda milliy bayramlarni nishonlaydilar, bir-birlariga yordam beradilar va qo'llab-quvvatlaydilar. Shunday qilib, madaniyatlarning o'zaro boyishi turli millat va din vakillarining ma'lum bir hududlarda ro'y beradi, bu esa jamiyatda bag'rikenglikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Umuman olganda, dunyoda milliy-etnik munosabatlar tobora murakkablashib borayotgan bir paytda, hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham oz sonli millat vakillarini kamsitish va ularga zulm o'tkazish birinchi o'ringa chiqayotgan bir paytda, O'zbekistondagi millatlararo va dinlararo bag'rikenglikni ta'minlash sohasida olib borilayotgan ishlarni hech mubolag'asiz yorqin na'muna sifatida qabul qilish mumkin. O'zbekiston xalqlarining asrlar davomida shakllangan hayot yo'li jamiyat barqarorligi va davlat taraqqiyotini ta'minlashda xalqlar va dinlararo bag'rikenglik mustakam asos bo'lib xizmat qiladi.

**Sattorov Samariddin,**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti bosh ilmiy  
xodimi